

MUSATAQILLIKNING DASTLABKI YILLARI NAVOIY VILOYTIDA AHOLINING IJTIMOIY AHVOLI, IJTIMOIY SIYOSAT KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI

Parmonov Husan Shomurot o'g'li

Navoiy davlat universiteti

Tarix fakulteti Tarix kafedrası o'qituvchisi Mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21676064>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillarida Navoiy viloyatida aholining ijtimoiy ahvoli hamda davlatning ijtimoiy siyosati shakllanish jarayoni tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, aholini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslari, bandlikni ta'minlash, pensiya va nafaqa tizimini takomillashtirish, kam ta'minlangan aholini qo'llab-quvvatlash hamda hududiy ijtimoiy siyosatning o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Shuningdek, Navoiy viloyatida amalga oshirilgan ijtimoiy himoya choralari, bandlik jamg'armalari, nogironlar jamiyatini qo'llab-quvvatlash va davlatning kuchli ijtimoiy siyosati iqtisodiy islohotlarning muhim tarkibiy qismi sifatida baholangan. Tadqiqot natijalari mustaqillikning ilk bosqichida amalga oshirilgan ijtimoiy siyosatning hududiy xususiyatlarini yoritish hamda uning tarixiy ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. Mustaqillik, Navoiy viloyati, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy himoya, aholi turmush darajasi, bozor iqtisodiyoti, bandlik, ishsizlik, pensiya tizimi, nafaqalar, ijtimoiy ta'minot, kuchli ijtimoiy siyosat, ijtimoiy islohotlar, mehnat bozori, ijtimoiy barqarorlik.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tishda iqtisodiy barqarorlikning zaiflashuvi hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni keltirib chiqardi. Mazkur salbiy holatlar mamlakat hukumati zimmasiga bozor islohotlarini amalga oshirish bilan bir qatorda, ijtimoiy barqarorlikni saqlash, tizimli ijtimoiy siyosat yuritish hamda aholining ehtiyojmand qatlamlarini manzilli ijtimoiy muhofaza qilish kabi strategik vazifalarni qo'ydi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tanlagan rivojlanish yo'li “O'zbek modeli” tamoyillari asosida rivojlanish strategiyasidagi iqtisodiy tizimni modernizatsiya qilishda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash asosiy omillaridan biri sifatida belgiladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida “Kuchli ijtimoiy siyosat”ning amalga oshirilishi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi fundamental omillardan biri hisoblanadi. Shu bois, iqtisodiy islohotlarni ro'yobga chiqarish jarayonida aholini ijtimoiy himoyalash strategiyasi davlat siyosatining asosiy yo'nalishiga aylandi. Bunda davlat bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi ijtimoiy yuklamalarni kamaytirish va aholi turmush darajasini saqlab qolish yo'lidan bordi.

Islohotlarning dastlabki davrlarida O'zbekistonda aholining ijtimoiy ta'minoti hamda himoyasining huquqiy asoslari yaratildi. Jumladan, “O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida¹” (20.11.1991), “Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida²” (13.01.1992), “Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida³” (06.05.1993), “Fuqarolarning davlat pensiyasi to'g'risida⁴” (03.09.1993) kabi bir qator ijtimoiy muhim ahamiyatga ega qonunlar qabul qilindi. Zarurat bo'lsa bu ham davlatning ijtimoiy himoya siyosati aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini nogironlar, nafaqaxo'rlar, ko'p bolali oilalar, yosh oilalar, talabalar, ishsizlar va boshqa ijtimoiy

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-140894> (murojat sanasi: 2024-yil 5-avgust)

² <https://lex.uz/docs/-14893> (murojat sanasi: 2024-yil 5-sentyabr))

³ <https://lex.uz/docs/-97243?ONDATE=21.05.1993&ONDATE2=24.12.2016&action=compare> (murojat sanasi: 2025-yil 5-sentyabr))

⁴ <https://lex.uz/acts/-112314> (murojat sanasi: 2025-yil 2-dekabr)

qatlamlarni himoya qilishga qaratilgan. Bu yo'nalishda keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirib kelindi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining ish haqi, pensiya va ijtimoiy to'lovlar inflyatsiya ta'siridan himoya qilish hamda ularning xarid qobiliyatini oshirish kabi masalalar ham e'tibordan chetda qolmadi. Shu bilan birga, O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish maqsadida Shvetsiya, Germaniya va Avstriya kabi rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribalari o'rganilib, ushbu xalqaro amaliyotni milliy iqtisodiyotga joriy qilish orqali, bozor munosabatlari sharoitida bandlikni ta'minlash, ishsizlikni qisqartirish hamda mavjud ishlab chiqarish salohiyatini saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirib kelindi. Birinchi navbatda, respublikada bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida ijtimoiy himoya tizimi shakllandi. O'zbekiston boshqa mustaqil respublikalardan farqli ravishda ijtimoiy himoya tizimini saqlab qoldi va rivojlantirdi. Respublikada ijtimoiy himoya tizimi mustahkam asosga ega bo'ldi. O'zbekistonda aholining turmush darajasini yaxshilash, pensiya va nafaqalarni oshirish, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish, nogironlarga g'amxo'rlik qilish, yoshlar va talabalarni qo'llab-quvvatlash borasidagi chora-tadbirlar samarali olib borildi.⁵

Mustaqillik davrida O'zbekistonda amal qilayotgan aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligi kuchayib bordi. Asosiy e'tibor sobiq ittifoq davridan meros qolgan umumiy ijtimoiy ta'minot tizimini isloh qilish va bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos keluvchi yangi huquqiy-institutsional bazani yaratishga qaratildi. Jumladan, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga xos aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini qo'llab-quvvatlashning dastlabki milliy mexanizmlari ishlab chiqildi.

Islohotlarning boshlang'ich bosqichida asosiy e'tibor oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari iste'mol qilinishi keskin kamayishi, ommaviy ishsizlik paydo bo'lishining oldini olish, aholi turmush darajasining keskin tushib ketishiga yo'l qo'ymaslik, ijtimoiy sohalar sog'liqni saqlash, ta'lim, fan va madaniyat tarmoqlari doimiy ishlashini ta'minlashga qaratildi. Asosiy oziq-ovqat va iste'mol mollarining keskin kamayib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun chegaralangan mahsulotlarning normalashtirilgan tizimi ishlab chiqildi. Shuningdek, himoya chorasini sifatida iste'molchilarga subsidiyalar berish tizimi va iste'mol bozoridagi asosiy oziq-ovqat tovarlarini mamlakatdan tashqariga chiqib ketishiga yo'l qo'ymaslikning turli shakllaridan keng foydalanildi.⁶

Kishilarni ijtimoiy himoyalash va uni kafolatlashning kuchli, ta'sirchan mexanizmi bo'lgandagina bozor iqtisodiyotiga sobitqadamlik bilan o'tishni ta'minlash, tarkibiy qayta qurishni amalga oshirish, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlagan holda ishlab chiqarish munosabatlarini tubdan isloh qilish mumkin⁷. Islohotlarning bu bosqichida O'zbekiston ijtimoiy himoya siyosatining asosiy vazifasi imkon qadar yalpi ishsizlikka yo'l qo'ymaslik hamda narxlarning erkinlashtirilishi natijasida aholi daromadlaridagi "yo'qotishlar"ni kamaytirish bo'ldi. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, milliy va demografik xususiyatlarini hisobga olgan holda, iste'mol bozorlari himoyasi va davlatning iste'mol xavfsizligiga asos solindi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillaridan muhtoj, ko'p bolali, qarovsiz qolgan oilalarga, qariyalar va yoshlarga yordam qo'li cho'zildi⁸.

⁵ Каримов И. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли // Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод,

сиёсат, мафкура. 1-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996. - Б.323.

⁶ О'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob: Mustaqil O'zbekiston tarixi / Tahrir hay'ati: M.Sharifxo'jayev -Toshkent: Sharq, 2000. - B. 145-148.

⁷ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Асарлар тўплами. 1-жилд. -Т.: Ўзбекистон, 1996. - Б.119.

⁸ Каримов И. Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти Ислон Каримовнинг Олий Кенгашининг навбатдан ташқари 9 сессиясидаги нутқи // Халқ сўзи, 1992 йил 5 январь. № 4 (255). - Б 1-2.

Mustaqillikning dastlabki yillarida xususan, 1991-yilning dekabrda eng kam ish haqi 180 so'mni tashkil etgan bo'lsa, 1992-yilning shu davriga kelib bu ko'rsatkich 2 000 so'mga ko'tarildi. Shu davr mobaynida nafaqalar, stipendiyalar va boshqa to'lovlar miqdori ham sezilarli darajada ortdi. Ushbu maqsadlar uchun viloyat byudjetidan 1 100 million so'm mablag' sarflandi, bu esa byudjet xarajatlari qismining 61 foizini tashkil etadi⁹. Bu siyosat o'tish davrining eng murakkab - boshlang'ich davrlarida ijtimoiy sohadagi asosiy maqsad va vazifalarni amalga oshirishga ko'mak berdi. Shunday yondashuv tufayli islohotlar arafasida eng noqulay boshlang'ich shart-sharoitlar va sezilarli ijtimoiy ziddiyatlarga ega bo'lgan O'zbekiston ijtimoiy mojarolarni chetlab o'tishga muvassar bo'ldi¹⁰.

Aholini ijtimoiy himoya qilish, kishilarning moddiy ahvolini yaxshilash vazifalarini hal etishda davlat manbalari bilan bir qatorda mehnat jamoalarining, jamoat va xayriya tashkilotlarining hamda jamg'armalarning mablag'lari ishga tushirilishi zarur. Darhaqiqat, o'zimizning xayriya ishlarimiz ko'rsatilishi, beva-bechora va yetim-yesirlarning boshini silash, muhtoj hamda kam ta'minlangan toifalarga yordam berish kabi xalqimizga xos fazilatlar hayotimizda milliy qadriyat darajasiga ko'tarilganini ko'p-ko'p misollarda ko'rish mumkin. El-yurtimiz orasida qadimdan yashab kelayotgan “Qo'li ochiqning yo'li ochiq”, “Birini berganga mingni beradi” degan chuqur ma'noli gaplar, “Birini bergan ko'pni beradi” degan fikrlar ko'pchilik tomonidan aytib kelinayotgan aqidalar tasdiqlaydi¹¹.

Aholining ijtimoiy jihatdan eng muhtoj tabaqalari va guruhlarini - bolalar, qariyalar, nogironlar va boshqalarni qo'llab-quvvatlash, avvalgidek, ijtimoiy siyosatimizning ustuvor yo'nalishi bo'lib qolaveradi. Ammo u ham aniq yo'nalishdagi siyosat tusini olishi lozim. Bu hol bolalar uchun nafaqalar hamda to'lovlarning mavjud turlari va shakllarini yagona tizimga solishni taqozo etadi. Bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy soha- sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat va san'at ayniqsa mushkul ahvolga tushib qoladi¹².

O'zbekiston mustaqillikning ilk yillarida markazlashgan rejali iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga o'tar ekan, aholini ijtimoiy himoya qilish masalasi kun tartibiga chiqdi. Respublikada bo'lganidek, Navoiy viloyatida ham 90-yillardagi iqtisodiy o'tish davrida aholini ijtimoiy himoya qilish siyosatini qo'llab-quvvatlash uchun muhim hujjatlar qabul qilindi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ishsizlikning oldini olish va mehnat bozorini tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 31-dekabrda 606-sonli va Navoiy viloyati hokimining 1993-yil 8-fevral K-01/39-son qarorlari qabul qilindi¹³. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Mehnat Vazirligi tarkibida mahalliy va viloyat darajalarida ish bilan ta'minlashga ko'maklashish Navoiy viloyat jamg'armasi tashkil etildi. Jamg'armaga nafaqat davlat xizmatini rivojlantirish, balki tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish, o'z bankini va korxonalarini tashkil etish kabi keng iqtisodiy huquqlar berildi. Jamg'arma mablag'larining 70 foizi joylarda ya'ni tuman va shaharlarda qoldirilishi, qolgan 30 foizi esa respublika darajasida markazlashtirilishi, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha korxona va tashkilotlar uchun mehnat haqi fondidan 3 foiz miqdorida majburiy ajratma to'lash belgilandi. Ijtimoiy ahamiyatga molik tashkilotlar, xususan, nogironlar jamiyatlari va o'qituvchilar ushbu

⁹ Navoiy viloyati davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 4-yig'majild, 26-varaq.

¹⁰ Ўзбекистон десять лет по пути формирования рыночной экономики. РАН, 2001.

¹¹ Каримов И. Жамиятимизни эркинлаштириш, ислохотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш вахалқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш - барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. - Тошкент: Ўзбекистон, 2007. - В.108.

¹² Каримов И. Биздан озод ва обод ватан қолсин 2-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996. - Б.14.

¹³ Навоий вилоят давлат архиви. 100- фонд, 1-рўйхат, 33- иш, 151-153 варак

ajratmalardan ozod etilgan. Shuningdek, urush faxriylari va nogironlar uchun sog'lomlashtirish maskanlari tashkil etish asosida hududiy muammolarni bevosita joyida hal etishga yo'naltirilgan.

O'zbekistonda mustaqillikning ilk yillarida amalga oshirilgan ijtimoiy siyosatning asosiy omillaridan biri aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'ldi. Aholini ijtimoiy himoya qilish siyosati islohotlar jarayonida jamiyat uchun mustahkam tayanch bo'lib xizmat qilib, bozor mexanizmlarini joriy etish bilan bog'liq iqtisodiy zarbalarni yumshatish imkonini beradi. Bu esa davlatning zaif qatlamlarni qo'llab-quvvatlash strategiyasini ko'rsatadi. Bu yondashuv iqtisodiy islohotlarning ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlovchi poydevor bo'lib xizmat qildi.

Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 17-iyuldagi 328-sonli qaroriga muvofiq, viloyat nogironlar jamiyati va uning korxonalari ijtimoiy sug'urtasi 4,7 foiz qilib belgilandi. Navoiy viloyati nogironlar jamiyatining shakllanishi va rivojlantirish uchun 120,0 (bir yuz yigirma) ming so'm pul ajratildi. Viloyat hududida yashovchi nogironlar uchun oziq-ovqat mahsulotlarini ajratish, ularni ish bilan ta'minlash uchun kerakli xom ashyoni ajratish, nogironlar ish joylarini saqlamagani uchun tushadigan 3 foizli mablag'ning 50 foizini viloyat nogironlar jamiyatiga yangi ish joylarini tashkil etish ko'zda tutilgan¹⁴.

¹⁴ Навоий вилоят давлат архиви. 100- фонд, 1-рўйхат, 28- иш, 108 - варақ